

№ 8 - SON OLDI-SOTDI SHARTNOMASI

Forish tumani

14 avgust 2022 yil

“FORISH STAR 777” MChJ keyingi o‘rinlarda - «Sotuvchi») Nizom asosida ish olib boruvchi nomidan Sayidov Sardor Zokirjonovich orqali bir tomondan va Forish tuman MTB (keyingi o‘rinlarda- «Xaridor») smeta asosida ish olib boruvchi nomidan Islomova Muqaddas Bozorovna orqali ikkinchi tomondan ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

1.1 «Sotuvchi» o‘ziga tegishli mol-mulkni «Xaridor»ning mulki qilib beradi, «Xaridor» esa mol-mulkning haqi to‘langandan keyin olish huquqiga ega bo‘ladi.

1.2 Mol-mulk to‘g‘risidagi ma‘lumot

2. Shartnoma narxi (qiymati)

T/r	Mahsulot nomi	Foydalanish kafolat muddati (yil, oy, kun)	O‘lchov birligi	Soni	Qiymati	Summasi
1	Katta tarelka paxta gulli		dona	800	8400	6720000
2	Piyola katta		dona	500	6400	3200000
3	Kosa paxta gulli		dona	500	10500	5250000
4	Sirli choynak 2,5 kg		dona	20	94000	1880000
5	Qozon 45 litrli		dona	10	265000	2650000
6	Temir qoshiq		dona	500	1900	950000
7	Sirli poqir		dona	20	119000	2380000
8	Mantiqozon		dona	5	185000	925000
9	Pichoq		dona	20	34000	680000
10	Elak		dona	5	34000	170000
11	Tog‘ora 18 litrlik sirlik		dona	8	119000	952000
12	Cho‘mich		dona	9	69000	621000
13	Jami					26378000

2.1 Shartnoma bahosi: Yigirma olti million uch yuz yetmish sakkiz ming so‘m

3. To‘lov shartlari

3.1 Ushbu shartnoma bo‘yicha to‘lov pul o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

4. Shartnomaning amal qilish muddati

4.1 Xaridor tomonidan olinayotgan xar bir mol-mulk to‘plami uchun oldindan 30% to‘lovni amalga oshiradi, qolgan 70% maxsulotni olgan kundan boshlab 1-5 kun ichida to‘lab beriladi.

4.2 Xaridor Sotuvchining xisob raqamiga pul o‘tkazgandan so‘ng, sotuvchi xaridorga mol-mulkni 5 kundan so‘ng berishi shart.

4.3 Ushbu shartnomaning muddati « 14 » avgust 2022 yildan « 31 » dekabr 2022 yilgacha amal qilinadi.

5. Taraflarning majburiyatlari

5.1 Sotuvchi majburiyati:

5.1.1 Shartnomada ko‘rsatilgan talablarga rioya qilgan xolda o‘z vaqtida «Xaridor» mol-mulkini berish;

- 5.1.2 Tegishli darajada sifatsiz maxsulot yuborganligi to'grisida xabarnoma olgandan so'ng sifatli bo'lmagan mol-mulkni 3 kun ichida almashtirib berish yoki ushbu shartnomaning 2-bandiga asosan sifatli bo'lmagan mol-mulk bahosini qaytarib berish;
- 5.2.2 Tegishli darajada sifatli bo'lmagan mol-mulk kelib tushgani aniqlangandan keyin, bu xaqida dalolatnoma yozilib, 24 soat ichida sotuvchini ogohlantirish;
- 5.2.3 Mol-mulk bahosini ushbu shartnomada belgilangan miqdorda va muddatda to'lash.

6. Taraflarning javobgarligi

- 6.1 Taraflarning biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, bu taraf boshqa tarafga etkazilgan zararni to'laydi.
- 6.2 Sotuvchi mol-mulkni to'liq etkazib bermaganligi uchun Xaridorga etkazib berilmagan xar bir kun uchun mol-mulk bahosining 0,5 %i miqdorida jarima to'laydi, lekin bunda penyaning umumiy summasi kechiktirilgan mol-mulk bahosining 50 %idan oshib ketmasligi zarur.
- 6.3 Tegishli darajada sifatli bo'lmagan mol-mulkni uz vaqtida almashtirishdan bosh tortsa, Xaridor-oluvchi Sotuvchiga kechiktirilgan xar bir kun uchun sifatli bo'lmagan mol-mulk bahosining 0,4 %i miqdorida penya to'laydi.
- 6.4 Mol-mulk uchun sotib oluvchi o'z vaktida to'lamaganligi uchun sotib oluvchi sotuvchiga o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 % miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizdan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi. .

7. Fors-major xolatlari

- 7.1 Xar bir taraf ikkinchi taraf oldida o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra va yengib bo'lmas kuch mavjud bo'lgan taqdirda Ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlari bo'yicha javobgar emas. (Urush e'lon qilinishi yoki boshlanishi, fukarolar tartibsizligi, epidemiya, embargo, yer kimirlashi, suv toshkini, yongin va boshka tabiiyo ofatlar shular jumlasidandir).
- 7.2 Taraflar ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmaslik sabablari to'grisida albatta ikkinchi tarafni ogohlantirishi shart.
- 7.3 Agar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch uch oy uzluksiz davom etsa, taraflar bir-birini yozma ravishda ogohlantirib, shartnomaning ijrosini bekor qilishi mumkin.

8. Nizoni xal qilishi tartibi

- 8.1 Ushbu shartnomada yoki unga bog'liq masalalar yuzasidan kelib chikadigan barcha nizolar eng avvalo taraflarning kelishuvi bilan xal qilinadi.
- 8.2 Taraflarning kelishuvi bilan xal qilib bo'lmaydigan nizolar qonun xujjatlarida belgilangan tartibda Jizzax viloyatidagi hududiy iqtisodiy sudlari orqali xal qilinadi.

9. Tomonlarning korruptsiyaga qarshi shartlashuvi (kelishuv)

- 9.1 Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi, yani ular, ularning xodimlari, kafillangan shaxslar, benifitsiyalari va shartnomani amalga oshirishdagi xamkorlari, pudratchilari tomonidan bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.
- 9.2 Tomonlar korruptsiyaga qarshi qoidalar buzulganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganida darhol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni (78 150 26 03) orqali bir-birini xabardor

qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan xolatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izox talab qilish xuquqiga ega va murojaatini olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushintirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.

9.3 Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korrupsion xavf-xatar barataraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korrupsion holatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish xuquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.

9.4 Ushbu bobda ko'rsatilgan asoslar bo'yicha shartnomani bir tomonlama bekor qilish talab qilgan tomonga yetkazilgan zararlarni qoplash qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi, ushbu bobning majburiyatlari ni buzgan tomon esa shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishi oqibatida ko'rilgan zararlarni qoplashni talab qilishiga xaqli emas.

10. Shartnomaga o'zgartirish va ko'shimchalar kiritish tartibi

10.1 Ushbu shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar faqat ikkala taraf tomonidan yozma ravishda tuzilib, imzo qo'yilgandan keyin G'aznachilik tomonidan ro'yxatga olingandan so'nggina yuridik kuchga ega.

10.2 Shartnoma taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun hujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan xolda muddatidan ilgari bekor qilinishi mumkin.

11. Boshqa shartlar

11.1 Ushbu shartnoma taraflarning xar biri uchun haqiqiy, bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuziladi.

11.2 Shartnomagailova: guvoxnoma, litsenziya _____

12. Taraflarning manzillariga bank rekvizitlari

"Ijrochi"

"Forish star 777" MChJ

(yetkazib beruvchining nomi)

Manzil: Forish tuman Bog'don shaharchasi

Tel/faks +998915684888

H/r: 20208000905548608001

Bank nomi: "Trast bank" XAB Jizzax filiali

MFO: 01166 IHH: 309 719 330

OKOHX: 71264

"Byurtmachi"

Forish tuman maktabgacha ta'lim bo'limi

(Budjetdan mablag oluvchining nomi)

Manzil: Forish tuman Bog'don shaharchasi

Tel/faks 4521483

Bank nomi: Toshkent sh. Markaziy bank

MFO: 00014 IHH: 305154746

OKOHX: 92400

H/r: 100022860082357091100251007

Forish tuman G'aznachilik bo'linmasi

Rahbar: _____

S.Sayidov

Rahbar: _____

M.Islomova



m.o'.



YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY

X U L O S A

1. Loyihaning turi
Xo‘jalik shartnomasi.
2. Loyihaning nomi
Oldi-sotdi shartnomasi.
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot
Forish tuman maktabgacha ta’lim bo‘limi tomonidan hujjat loyihasi birinchi marotaba 09.08.2022 yilda tizimga kiritilgan, kamchiliklari bartaraf etilib 15.08.2022 yilda qayta yuborilgan.
4. Mas’ul ijrochi
Forish tuman maktabgacha ta’lim bo‘limi mas’ul xodimi F.Turg‘unov.

Forish tuman yuridik xizmat ko‘rsatish markaziga elektron tizim orqali Forish tuman maktabgacha ta’lim bo‘limining “FORISH STAR 777” MChJ va tuman maktabgacha ta’lim bo‘limi o‘rtasidagi oldi-sotdi xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha shartnomasi huquqiy ekspertizadan o‘tkazish va xulosa berishlik uchun kelib tushgan.

Shartnoma loyihasida “FORISH STAR 777” MChJ tomonidan Forish tuman maktabgacha ta’lim bo‘limiga qarashli DMTTlari uchun idish-tovoqlar va oshxona uchun boshqa zaruriy anjomlar sotib olish xizmatini bajarish bo‘yicha 06.08.2022 yilda o‘tkazilgan elektron tanlov bo‘yicha xarid komissiyasining lot raqami 130053-son bo‘lgan bayonnomasi orqali tanlov g‘olibi bo‘lganligi uchun oldi-sotdi bo‘yicha xizmatlarini ko‘rsatishi belgilangan.

Forish tuman maktabgacha ta’lim bo‘limi tomonidan tuman maktabgacha ta’lim bo‘limiga qarashli DMTTlari uchun idish-tovoqlar va oshxona uchun boshqa zaruriy anjomlar sotib olish xizmatini bajarish yuzasidan 26950000 (yigirma olti ming to‘qqiz yuz ellik ming) so‘mga tanlov e‘lon qilingan (lot raqami: 130053).

Forish tuman maktabgacha ta’lim bo‘limi xarid komissiyasining 2022-yil 06-avgustdagi bayonnomasiga asosan e‘lon qilingan tanlovda “FORISH STAR 777” MChJning 26378000 (yigirma olti million uch yuz yetmish sakkiz ming) so‘mlik taklifi tanlov g‘olibi deb topilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonuni 10-moddasiga asosan xo‘jalik shartnomasi shartnoma predmetini, yetkazib beriladigan tovarning (ishning, xizmatning) miqdori, sifati, assortimenti va bahosini, shartnomaning bajarilish muddatlarini, hisob-kitob qilish tartibini, taraflarning majburiyatlarini, shartnoma

majburiyatlari bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda taraflarning javobgarligini, nizolarni hal etish tartibini hamda taraflarning rekvizitlarini, shartnoma tuzilgan sana va joyni, shuningdek bunday turdagi shartnomalar uchun qonunchilikda belgilangan yoki taraflardan birining arizasiga ko'ra o'zaro kelishuvga erishish lozim bo'lgan boshqa muhim shartlarni nazarda tutishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 31-moddasiga asosan pudrat shartnomasi bo'yicha bir taraf (pudratchi) ikkinchi taraf (buyurtmachi)ning topshirig'iga binoan ma'lum bir ishni bajarish va uning natijasini buyurtmachiga belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa ish natijasini qabul qilib olish va buning uchun haq to'lash majburiyatini oladi. Agar qonunchilikda yoxud taraflar kelishuvida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, ishni bajarish uchun pudratchi tavakkal qiladi.

Pudrat shartnomasining ayrim turlari (maishiy pudrat, qurilish pudrati, loyihalash yoki qidiruv ishlari pudrati, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologiya ishlari pudrati)ga, agar ushbu kodeksning bunday turdagi shartnomalar to'g'risidagi qoidalarida boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, ushbu qoidalar qo'llanadi.

Shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni hamda amaldagi fuqarolik qonunchiligiga muvofiq tuzilgan.

Shartnoma loyihasiga yuridik shaxsning davlat ro'yxatidan o'tkazish haqidagi guvoxnoma, "FORISH STAR 777" MChJning Ustavi, bo'limning tanlov o'tkazish komissiyasining 2-son majlis bayonnomasi hamda Forish tuman maktabgacha ta'lim bo'limi elektron xarid komissiyasining 2022-yil 06-avgustdagi bayonnomasi hamda boshqa zaruriy hujjatlar ilova qilingan.

Shartnoma loyihasini huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra:


X U L O S A:

Forish tuman maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan tuman maktabgacha ta'lim bo'limiga qarashli DMTTlari uchun idish-tovoq va oshxona uchun boshqa zaruriy anjomlar sotib olish xizmatini bajarish yuzasidan tuman maktabgacha ta'lim bo'limi xarid komissiyasining 2022-yil 06-avgustdagi bayonnomasiga asosan e'lon qilingan tanlovda "FORISH STAR 777" MChJning 26378000 (yigirma olti million uch yuz yetmish sakkiz ming) so'mlik taklifi tanlov g'olibi deb topilganligi uchun "FORISH STAR 777" MChJ va tuman maktabgacha ta'lim bo'limi o'rtasidagi oldi-sotdi xizmatini ko'rsatish bo'yicha shartnoma loyihasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tuzilgan.

**Yuridik xizmat ko'rsatish
markazi bosh yuristkonsulti**



U. Maxammatov
2022-yil 18 avgust



Фориш туман мактабгача таълим бўлими томонидан туман бюджет кабатлари ҳисобидан Фориш туман Мактабгача таълим бўлимига қарашли боғчаларни идиш-товоклар билан таъминлаш учун № 130053 - сонли лот билан ўтказилган электрон танлов натижасига кўра аниқланган ғолиб бўлишча таълим бўлимига қарашли комиссиянинг

МАЖЛИС БАЁННОМАСИ № 2

2022 йил « 09 » августъ

Боғдод шаҳарчаси

Фориш туман МТБ бошлиғи **М.Исломова** - баҳолаш танлов комиссиясининг раиси
Қатнашдилар:

1. Ҳажибоев Шерзод
2. Усмонов Гафур
3. Қижаева Мавлуда
4. Тургунов Фарход
5. Холиков Хусан

КОМИССИЯ АЪЗОЛАРИ:

- Фориш туман МТБ мутахассис-танлов комиссиясига қотибди.
- Фориш туман МТБ ҳисобчи-комиссияси аъзоси.
- Фориш туман МТБ бош ҳисобчи-комиссияси аъзоси.
- Фориш туман МТБ ҳисобчи-комиссияси аъзоси.
- Фориш туман МТБ ҳисобчи-комиссияси аъзоси.

Қун тартибди:

1. ЛОТ № 130053-сон билан Фориш туман Мактабгача таълим бўлимига қарашли боғчаларни идиш-товоклар билан таъминлаш учун.

ЭЪЛОИ (БУЮРТМАНОМА)

Фориш туман Мактабгача таълим бўлимига қарашли боғчаларни идиш-товоклар билан таъминлаш бўйича ахборот порталига жойлаштирилган 2022 йил 29 июлдан 05 августгача 7 кун муддатта ЛОТ № 130053-сонли эълон (талабнома)га асосан талабгорлар томонидан тақдим этилган таклифлар бўйича.

2. Фориш туман Мактабгача таълим бўлимига қарашли боғчаларни идиш-товоклар билан таъминлаш бўйича (бажарини) иштирок этиш таъкилотлар ва уларга қўйилган умумий баллар.

Минг.сўмда.

Товар (иш,хизмат)нинг номи	Ў.л. Бирл	Сони	FORISH STAR-777 МСН		NURBOG' MSN	
			Таклиф этилган нарх (сўм)	Умумий балл	Таклиф этилган нарх (сўм)	Умумий балл
Фориш туман Мактабгача таълим бўлимига қарашли боғчаларни идиш-товоклар билан таъминлаш	Хизмат	1	26378.0	58,24	26603.0	39,44

Талабгорлар томонидан Фориш туман Мактабгача таълим бўлимига қарашли боғчаларни идиш-товоклар билан таъминлаш бўйича ахборот порталига жойлаштирилган 2022 йил 29 июлдан 05 августгача 7 кун муддатта ЛОТ № 130053-сонли эълон юзасидан икки кун муддатда олзаки ёки ёзма эътироз ва мурижаатлар тушмади.

Комиссия Фориш туман Мактабгача таълим бўлимига қарашли боғчаларни идиш-товоклар билан таъминлаш учун ўтказилган танлов бўйича:

Қарор қилади:

1. Фориш тумани Фориш туман Мактабгача таълим бўлимига қарашли боғчаларни идиш-товоклар билан таъминлаш бўйича ўтказилган танловда 58.24 балл билан ғолиб бўлган FORISH STAR-777 МСН билан шартнома имзоланиб, ёғначилик бўлимидан рўйхатдан ўтказилсин.

1. Ҳажибоев Шерзод

2. Усмонов Гафур

3. Қижаева Мавлуда

4. Тургунов Фарход

5. Холиков Хусан

Handwritten signatures of the commission members.